

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**1-2022**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

---

**Tahrir hay'ati**

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

---

**Tahririyat kengashi**

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)  
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)  
ORIPOV A. (O'zbekiston)

---

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

---

Bosishga ruxsat etildi:  
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8  
Bosma tabog'i:  
Ofset bosma: Ofset qog'oz.  
Adadi: 10 nusxa  
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.  
**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

---

**Farg'ona,**  
**2022.**

<b>Sh.Hakimova</b> O'zbekistonda elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslari .....	113
<b>J.Bo'tayev</b> XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida samarqand viloyati qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar .....	118
<b>I.Bohodirov, B.Jurayev</b> Turkistonda XIX asr o'rtalarida armiya va harbiy ta'lim .....	123
<b>A.Yuldashev</b> Davlat, boshqaruv va rahbarlik masalasiga oid tarixiy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar.....	129
<b>B.Ataxanov</b> Mustaqillikning ilk yillarida o'zbekistonning Belarus respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari .....	136
<b>Sh.Husanova</b> Qadimgi Farg'onaning samoviy tulporlari .....	140
<b>N.Komilov</b> Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o'rinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	146
<b>G'.Raxmonov</b> Farg'ona vodiysida suvdan foydalanishni yaxshilashda suvni tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning qulayliklari.....	151
<b>O.Abdunosirova</b> Iskandar Mirzo – madaniyat va san'at homiysi sifatida .....	155
<b>Z.Abdullayev</b> Turkistonda mol-mulk musodarasini va rekvizitsiya .....	158
<b>S.Isroilova, G.Karimova</b> Tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni loyihalashtirish.....	163

## ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>Z.Tashtemirova, E.Gizdulin</b> Lirik she'riyatning turga oid xususiyatlari .....	167
<b>N.Sidikova</b> Yurt tarixi va el taqdiri talqinlari .....	173
<b>A.Eshdavlatova</b> Rauf parfi ijodida erkin ruhning nostandart isyoni ifodasi .....	177
<b>J. Xalliyev</b> Ogahiy tarixiy va lirik asarlarida falsafiy-ma'rifiy istilohlar istifodasida mushtaraklik.....	182
<b>E.Qurbonova</b> Yassaviy "Pirim" deb ulug'lagan zot .....	186

## TILSHUNOSLIK

<b>K.Yusupova</b> Imperativ konstruksiyalarda so'z tartibi.....	190
<b>Yu.Shuxratova, A.Mamajonov</b> O'xshatish munosabatini ifodalovchi morfologik vositalar.....	195
<b>A.Yuldashev</b> So'z yasalanishining kognitiv aspekti .....	198
<b>X.Dusmatov</b> O'zbek milliy so'z o'yinlarining reklama matnlarida ifodalanishi.....	204
<b>N.Umarova, D.Madazizova</b> Tilshunoslikda "argo" tushunchasi talqinlari.....	211
<b>G.Majidova</b> Til darslarida madaniyatni qamrab olish .....	215
<b>L.Yo'ldosheva</b> Muzeylarda turli xil mashg'ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish .....	220
<b>N.Mamajonova</b> Til darslarida lug'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish .....	224
<b>G.Isakova</b> "Qanotli so'z" va "sitata" tushunchalarining o'zaro farqi.....	229
<b>Z.Alimova</b> Ayrim forsiy frazeologik birliklarning o'zbek tilida qo'llanilishi xususida .....	233
<b>И.Попубай</b> Zamonaviy lingvistik bilimlarda "axborot texnologiyalari diskursi" belgilash ta'rifi.....	238

## TILSHUNOSLIKDA “ARGO” TUSHUNCHASI TALQINLARI

## ИНТЕРПРЕТАЦИИ ПОНЯТИЯ "АРГО" В ЛИНГВИСТИКЕ

## INTERPRETATIONS OF THE CONCEPT "ARGO" IN LINGUISTICS

Umarova Nargizaxon Rustamovna<sup>1</sup>, Madazizova Dilafruz Xabibiloevna<sup>2</sup><sup>1</sup>Umarova Nargizaxon Rustamovna

– FarDU, filologiya fanlari doktori.

<sup>2</sup>Madazizova Dilafruz Xabibiloevna

– Gumanitar yo‘nalishlar bo‘yicha chet tillari kafedrisi katta o‘qituvchisi.

**Annotatsiya**

Maqolada nutq hodisalaridan biri “argo”ning definitsiya masalasi mahalliy va xorij tilshunoslarining talqin va tahlillari asosida yoritib berilgan. Unda tilshunos-olimlarning bu so‘zning etimologiyasi, ya‘ni qachon, qaysi tildan kirib kelganligi, unga bergan ta‘riflari va uning talqinidagi tafovutlar, shuningdek, bu termindan jamiyatning qaysi tabaqa vakillari (quyi, yuqori) yoki ijtimoiy guruhlar tomonidan foydalanishi misollar yordamida izohlangan.

Maqolaning tahlil va natija qismida, tilshunos-olimlarning talqin va tahlillari “argo”ni ikki (2) yo‘nalishga ajratish mumkin ekanligini, ya‘ni: a) “argo” jamiyatning qo‘yi tabaqa vakillari nutqida ko‘zatilishi mumkin bo‘lgan til hodisasi va b) “argo” turli soha vakillari tomonidan foydalaniladigan “maxsus so‘z va iboralar” ekanligi ta‘kidlangan.

**Аннотация**

В статье рассматривается определение «арго», одного из явлений речи, на основе интерпретации и анализа отечественных и зарубежных лингвистов. Объясняется этимология слова лингвистами, т. е. когда, из какого языка оно произошло, его определения и различия в его толковании, а также примеры употребления этого термина членами общества (низшими, высшими) или социальными группами.

В разделе анализа заключения статьи лингвисты поясняют, что «арго» можно разделить на два (2) направления: а) «арго» — языковое явление, которое можно наблюдать в речи низких или неблагородных людей, и б) “арго” - это “специальные слова и фразы”, используемые их представителями (легальные профессии).

**Abstract**

The article deals with the definition of “argo”, one of the phenomena of speech, based on the interpretation and analysis of local and foreign linguists. It explains the etymology of the word by linguists, its definitions and differences in its interpretation, as well as the examples of how this term is used by members of society (lower, upper) or social groups.

In the section of analysis and conclusion of the article, the linguists explain that “argo” can be divided into two (2) directions: a) “argo” is a linguistic phenomenon that can be observed in the speech of low or disreputable people, and b) “argo” is “special words and phrases” used by their representatives. (legal professions).

**Kalit so‘zlar:** nutq hodisasi, definitsiya masalasi, argo, maxsus ibora, lingvistik qatlam, lingvistik hodisa, kasbiy yoki ijtimoiy guruhlar, semantik munosabatlar, so‘z shakllanishi munosabatlari, yopiq leksik tizim, umumiy jargon, o‘g‘rilar jargoni, kriptologik maqsad.

**Ключевые слова:** речевые явление, проблема дефиниции, арго, специальная фраза, языковой слой, лингвистическое явление, профессиональные или социальные группы, семантические отношения, словообразовательные отношения, замкнутая лексическая система, общий жаргон, воровской жаргон, криминологическое намерение.

**Keywords:** speech phenomenon, problem of definition, argo, special phrase, language layer, linguistic phenomenon, professional or social groups, semantic relations, word-formation relations, closed lexical system, general jargon, thieves' jargon, cryptological intention.

**KIRISH:** “Argo” nutq hodisalaridan biri bo‘lib, mahalliy, ayniqsa, xorij tilshunoslari orasida uning definitsiya masalasi ustida ko‘plab bahs munozaralar mavjud. Quyida tilshunos-olimlar tomonidan nutq hodisasi “argo”ga berilgan ta‘rif, fikr mulohazalar, shuningdek, ularning xulosalari bilan yaqindan tanishib chiqib, ularni tahlil etamiz va xulosalaymiz.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR:** Xorij tilshunosi P.L.Giraud ma‘lumotlariga ko‘ra, “argo” atamasi dastlab XVII asrda fransuz tili “harigoter” (yomon, yomonlik qilmoq) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, dastlab jamiyatning quyi tabaqalari - tilanchilar, o‘g‘rilar, lo‘lilar tili sifatida e‘tirof etilgan. Dastavval, undan foydalanish darajasi juda tor doirada bo‘lib, lingvistik qatlamdan joy olgach, turli soha vakillari tomonidan “maxsus ibora” sifatida keng istifoda etilgan[1.153].

“Lingvistik ensiklopediya” izohli lug‘atida, esa “argo” bir qancha cheklangan kasbiy yoki ijtimoiy guruhlar tomonidan erkin, turli tillardan tanlab olingan alohida so‘zlar sifatida

tasniflangan[2.371]. Mazkur lug'atda agar argo xorijiy tillar leksikasidan kirib kelgan bo'lsa, uni varvarizm yoki forinizm natijasida vujudga kelgan so'zlar qatoriga qo'shishimiz ham mumkin. Biroq, lug'atning ikkinchi (qo'shimcha) sharhida argo tez-tez tor ma'noda, shuningdek, jinoiy olam vakillari tomonidan (masalan, o'g'rilar argosi sifatida) qo'llanilishi ham qayd etilgan[2.371].

Rus sotsiologiyasi B. A. Larin argoni ma'lum bir kasb yoki ijtimoiy guruh vakillari va shahar muloqotiga xos deb tariflaydi[3.175].

E. M. Beregovskaya ham yuqoridagi tilshunoslar qatorida lingvistik hodisa - argo to'g'risidagi fikr mulohazalarini o'z maqolasida quyidagicha bayyon etadi: "Argo-ma'lum bir ijtimoiy guruh tomonidan boshqariladigan so'zlar to'plamidir"[4.56].

L. I. Skvorsov ta'rifi esa yuqoridagi talqinlardan bir muncha farq qiladi: "Argot-bu juda profesional yoki o'ziga xos tarzda o'zlashtirilgan (semantik va so'z shakllanishi munosabatlarida) tez-tez ishlatiladigan so'zlar, ko'pincha "sun'iylik" va "maxfiylik" elementlari bilan tavsiflangan nutqning ijtimoiy turidir. Argo nisbatan yopiq guruh va jamoalarga mansub, shuningdek, aniq terminologik ma'noda argo jamiyatning quyi sinflari, maxfiy guruhlar va jinoyat olami vakillari nutqi elementlari sifatida tilanchilar, o'g'rilar, qartabozlar va shunga o'xshash jamoalarga daxldor ekanligini ta'kidlaydi[5.23].

"Sovremennoe russkoe prostorechie kak dinamicheskaya sistema" va "Stilisticheskaya sistema russkogo yazika" deb nomlangan ishlarida tilshunos V. V. Ximik dastlab ushbu konsepsiya - "argo" bo'yicha o'z qarashlarini "tor ijtimoiy manfaatlarga xizmat qiluvchi maxsus (ko'proq professional) yopiq leksik tizim"[6.14]. sifatida aks ettiradi. Lekin tilshunos bu tarif bilan cheklanib qolmay, barcha tilshunos va olimlar tomonidan bu atamaga berilgan izohlarni chuqurroq o'rgandi, o'rganish natijasida esa u ilmiy-tadqiqot muassasalari, shuningdek, tilshunoslar orasida argo atamasi talqinida turli ziddiyatli mulohazalar mavjudligiga e'tibor qaratib, ikkinchi bor argo tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: "Argo bir tomondan o'zida umumiy jargonni mujassam etayotgandek tuyulsa-da, ikkinchi tomondan "o'g'rilar jargoni"ga ham mos keladi". Tilshunos o'z ta'rifiga yana qarama-qarshi yondashib, argo tushunchasining keng miqyosda talqin etilganligi, ya'ni har qanday germetik tizimlar, oilaviy yopiq va ochiq argodan boshlab, to Moskva aholisi tomonidan foydalaniladigan ochiq va ommaviy argoni nazarda tutib, bularning hammasi uchun umumlashtirilgan (atama) termin, ya'ni ingliz tilida so'zlashuvchilar madaniyatida foydalanish urf bo'lgan so'z - "sleng" atamasi borligiga ishora qiladi[7.21]. Olim argo atamasiga har ikki nuqtai nazar birlashgan yondashuvni taklif qiladi, ya'ni, "argo"- bu tor ijtimoiy manfaatlarga, ko'pincha professional manfaatlarga xizmat qiluvchi maxsus nominatsiyalarning yopiq leksik quyi tizimi ekanligini ta'kidlaydi.

V.V. Ximik yuqoridagi xulosasiga qo'shimcha ravishda quyidagilarni ilova qiladi, ya'ni "argo"-nutq hodisasiga mansub bo'lgan so'zlardan, nafaqat jamiyatning quyi ijtimoiy guruh vakillari (firibgar, qallob, tovlamachi, o'g'ri, daydi va darbadarlar) tomonidan, balki boshqa "yuridik"/huquqiy kasb egalari (kompyuterchilar, sportchilar, haydovchilar va boshqalar)ning ham o'z "argo"si borligiga ishora qiladi. Ana shunday yondashuv natijasida atamaning keng va tor talqinidagi tafavutlar bartaraf etilishiga e'tibor qaratadi.

Xorij tilshunoslari bilan bir qatorda o'zbek tilshunoslari ham ushbu til hodisasi haqida o'z fikr mulohazalarini bildirishgan. "O'zbek izohli lug'ati"da argotizmlar, (fr."argotisme"-argot) biror argodan adabiy tilga o'zlashib qolgan so'z va iboralar sifatida ta'riflanib, dalil sifatida quyidagi misol keltirilgan, ya'ni haydovchilar tilida "quyon"-chiptasiz yo'lovchi[8.95] tushunchasini ifodalaydi.

Tilshunos SH. SHOabdurahmonov va M. Asqarova ta'rificha, "argolar qiziqishlari, mashg'ulotlari, yoshlari bir xil bo'lgan juda tor doiraga mansub kishilar qo'llaydigan, ma'nosi shunday kishilarga tushunarli bo'lgan so'zlardir. Ular umumxalq tiliga oid so'zlardan bo'lsa-da, ammo bunday so'zlar ham keng xalq ommasiga tushunarli bo'lmaydi"[9.131]. Olimlar o'zbek tilida otarchilar, o'g'rilar, savdogarlar va boshqa guruhlarining argolari mavjudligini qayd etadi.

O'zbek tilshunoslaridan U. Tursunov, A. Muxtorov va SH. Rahmatullaev argotizmlarni jargonizmning bir ko'rinishi sifatida talqin etib, tarbiyasi buzuq, qo'li egri shaxslar orasida shu guruhning o'zigagina tushunarli bo'lgan leksema va frazemalar yig'indisi[10.149] sifatida e'tirof etadilar. Bu o'rinda tilshunoslar jargon va argo singari til hodisalarini farqlamagan.

## TILSHUNOSLIK

Professor M. Mirtojiev fikricha, “argo” ma’lum soha vakillari tomonidan qo’llanilib, boshqalar uchun sir tutilgan terminlardir. Masalan, o’g’rilar argosida pulni “loy”, narsasini o’g’rilatgan shaxsga nisbatan “harf” va h.z.[11.54].

“Hozirgi o’zbek adabiy tili” mualliflari R. Sayfullaeva, B. Mengliev, G. Boqieva[12.125] M. Mirtojiev fikrlariga o’z ta’riflarida birmuncha aniqlik kiritgan holda, argoning professional yoki ijtimoiy guruhning o’ziga xos til elementi ekanligini ta’kidlab, nutqda kommunikatsiya predmetini sir tutish maqsadida qo’llanishi orqali uning nutq hodisasi ekanligini aniq ko’rsatadilar.

**NATIJAR VA MUHOKAMA:** Argo to’g’risidagi mahalliy va xorijiy tilshunoslarning fikr-mulohazalari 2 yo’nalishga ajratishimiz mumkin. Ya’ni:

1. “Argo” jamiyatning qo’yi tabaqa vakillari nutqida ko’zatilishi mumkin bo’lgan til hodisasi.

Fransuz tilshunosligida “argo” haqida jamiyatning past tabaqalari: tilanchilar, o’g’rilar, lo’lilar tili (P.L.Giraudning dastlabki fikrlari) ekanligi, jamiyatning quyi sinflari, maxfiy guruhlar va jinoyat dunyosining nutqi, ya’ni tilanchilar, o’g’rilar, qartabozlar va shunga o’xshash jamoalarga daxldor ekanli (L. I. Skvorsov); “argo” bir tomondan o’zida umumiy jargonni mujassam etayotgandek tuyulsada, ikkinchi tomondan “o’g’rilar jargoni”ga ham mos kelishi (V. V. Ximik) qayd etilgan bo’lsa, mahalliy tilshunoslar xorij tilshunoslarining yuqoridagi fikrlariga qo’shildilar.

2. “Argo” turli soha vakillari tomonidan foydalaniladigan “maxsus so’z va iboralar”dir.

Argo haqidagi bu qarashlarni qo’llab-quvvatlovchi tilshunos olimlardan B. A. Larin (“ma’lum bir kasb yoki ijtimoiy guruh vakillari” tomonidan qullanadigan), E.M. Beregovskaya (“ma’lum bir ijtimoiy guruh tomonidan boshqariladigan so’zlar to’plami”), V. V. Ximik (“tor ijtimoiy manfaatlarga xizmat qiluvchi maxsus nominatsiyalarning yopiq leksik quyi tizim”, “nafaqat jamiyatning quyi ijtimoiy guruh vakillari, balki boshqa “yuridik” kasblar (kompyuterchilar, sportchilar, haydovchilar va boshqa guruhlar); SH.SHoabdurahmonov va M.Asqarova (“qiziqishlari, mashg’ulotlari, yoshlari bir xil bo’lgan juda tor doiraga mansub kishilarga”), M. Mirtojiev (“ma’lum soha vakillariga”), R. Sayfullaeva, B. Mengliev, G. Boqieva (ayrim professional yoki ijtimoiy guruhga”) kommunikatsiya predmetini sir tutish maqsadida qo’llaniladigan so’z va iboralar sifatida ta’riflanadi.

**XULOSA:** Ko’rinib turibdiki, ikkinchi fikrni qo’llab quvvatlovchi tilshunoslar soni ko’proq. Ularning talqinlariga asoslanib atamaga qo’yidagicha umumiy ta’rifni berib, fikrimizni xulosalashimiz mumkin: “Argo” - ijtimoiy manfaatlari, sohalari, kasb-korlari, qiziqishlari, mashg’ulotlari, shuningdek, yoshlari qariyb bir xil bo’lgan juda tor doiraga mansub kishilarga nutqda kommunikatsiya predmetini sir tutish maqsadida qo’llaniladigan so’z va iboralardir.

Bunday so’zlar keng xalq ommasiga tushunarli bo’lmay, faqat oz sonli, muayyan toifadagi kishilarigina tushunarli bo’ladi. Ular sirli, ayni paytda avvaldan ko’zlangan biror kommunikativ maqsadga mo’ljallangan bo’lib, nutqda parol vazifasini bajaruvchi so’zlardir. SHuningdek, argo ba’zi guruhlar uchun kriptologik (maxfiy) maqsadni o’zida qamrab oladi.

## ADABIYOTLAR RO’YXATI (REFERENCES)

1. Guiraud P.L. Etimologie-Paris,1964. (Гиро П.Л. Этимология-Париж)
2. Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar. -M.:2008. - S.371.//Linguistic encyclopedic dictionary.-M.:2008. (Лингвистический энциклопедический словарь. -M.:2008. - С.371.//Лингвистический энциклопедический словарь.-M.)
3. Larin B.A. Istoriya russkogo yazika i obshche yazikoznanie. (Izbrannoe raboti). M.:, 1977.-S.175-176.// Larin B. A.History of the Russian language and general linguistics.(Selected work).M.:, 1977. (Ларин Б.А. История русского языка и общее языкознание. (Избранные работы). M.:, 1977.-С.175-176.// Ларин Б.А. История русского языка и общего языкознания.(Избранные работы).M)
4. Beregovskaya E.M. Molodyojniy sleng. Formirovanie i funkcionirovanie//Voprosi yazikoznaniya.-1996.-№3.- S.56.//Beregovskaya E. M.Youth slang. Formation and functioning//Issues of linguistics.-1996.-№3. (Береговская Е.М. Молодёжный сленг. Формирование и функционирование//Вопросы языкознания.-1996.-№3.- С.56.//Береговская Е. М. Молодежный сленг. Становление и функционирование//Вопросы языкознания)
5. Skvorsov L. I. Ob otsenkaх yazika molodyoji (jargon i yazikovaya politika), Skvorsov L. I. Voprosi kulturni rechi.-M.: 1964.-Vip. 5. S.23-24//Skvortsov L. I. On the assessment of the language of youth (jargon and language policy), Skvortsov L. I. Questions of the culture of speech.-M : 1964.-Iss. (Скворцов Л. И. Об оценках языка молодежи, Скворцов Л. И. Вопросы культуры речи.-M.: 1964.-Вип. 5. С.23-24//Скворцов Л.И. Об оценке языка молодежи (жаргон и языковая политика), Скворцов Л.И. Вопросы культуры речи.)
6. Ximik V.V. Sovremennoe russkoe prostorechie kak dinamicheskaya sistema//Stilisticheskaya sistema russkogo yazyka.-SPb., 1998.C.14//Xhimik V.V. Modern Russian vernacular as a dynamic system // Stylistic system of the Russian language.-SPb., 1998. (Химик В.В. Современное русское пространство как динамическая система//Стилистическая

система русского языка.-СПб., 1998.С.14//ХимикВ.В. Современный русский просторечие как динамическая система // Стилистическая система русского языка.-СПб.)

7. Ximik V.V. Poetika nizkogo, ili prostorechie kak kulturnoy fenomen. -SPb.:Fil-fak SPbGU, 2000.С.21//Khimik V.V. Poetics of the low, or vernacular as a cultural phenomenon.-SPb.: Phil-FakSPbSU, 2000. (Химик В.В. Поэтика низкого, или просторечие как культурной феномен. -СПб.:Фил-фак СПбГУ, 2000.С.21//Химик В.В. Поэтика низменного, или просторечие как явление культуры.-СПб.: Фил-ФакСПбГУ)

8. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli.-T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. 2006.-P.95.//Annotated dictionary of the Uzbek language. Volume 5-T.: National Encyclopedia of Uzbekistan. Volume- 1.2006. (Аннотированный словарь узбекского языка. Том 5-Т.: Национальная энциклопедия Узбекистана.)

9. Shoabdurahmonov SH. va Asqarova M. va b. Ko'rsatilgan manba. //Shoabdurahmonov Sh. and Askarova M. and o.References. (Шоабдурахмонов Ш. и Аскарлова М. и о.Литература.)

10. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullaev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T.:O'zbekiston, 1992-P.149//Tursunov U., Mukhtorov A., Rakhmatullaev Sh. Modern Uzbek literary language.-T.: Uzbekistan, 1992 (Турсунов У., Мухторов А., Рахматуллаев Ш. Современный узбекский литературный язык.)

11. Mirtojiev M.M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. O'quv qo'llanma.-T.:O'zMU. 2000. //Mirtojiev M.M. Lexicology and lexicography of the Uzbek language. Textbook.-T.: National University of Uzbekistan. 2000. (Миртожиев М.М. Лексикология и лексикография узбекского языка. Учебник.-Т.: Национальный университет Узбекистана)

12. Sayfullaeva R, Mengliev B, Voqieva G. va b. Ko'rsatilgan manba.-P.125//Sayfullaeva R, Mengliev B, Voqieva G. and o. References. (Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Бокиева Г. и о. Рекомендации.)

(Taqrizchi: A.Mamajonov – Filologiya fanlari doktori, professor)